



THE ROLE OF ARCHAEOLOGICAL AND ETHNOGRAPHIC RESEARCH IN THE HISTORY OF UZBEKISTAN

Pirnafas Kholikulov

Associate Professor

University of Economics and Pedagogy

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Archaeology, ethnography, history of Uzbekistan, ancient culture, material heritage, ethnographic studies, national traditions, folklore, irrigation systems, urban planning, handicrafts, independence period, national identity, historical heritage.

Received: 08.10.25

Accepted: 09.10.25

Published: 10.10.25

Abstract: This article examines the role of archaeological and ethnographic research in the history of Uzbekistan. It emphasizes the importance of studying material and spiritual heritage scientifically to better understand the development of society and intercultural interactions. Archaeological findings provide valuable insights into ancient urban planning, irrigation systems, economic activities, and religious practices, while ethnographic research highlights the unique lifestyle, traditions, folk art, and handicrafts of the Uzbek people.

ARXEOLGIK VA ETNOGRAFIYAGA OID TADQIQOTLARNING O'ZBEKISTON TARIXIDA TUTGAN O'RNI

Pirnafas Xolikulov

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Arxeologiya, etnografiya, O'zbekiston tarixi, qadimiy madaniyat, moddiy meros, etnografik tadqiqotlar, milliy urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi, irrigatsiya tizimi, shaharsozlik, hunarmandchilik, mustaqillik davri, milliy o'zlik, tarixiy meros.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston tarixida arxeologik va etnografik tadqiqotlarning tutgan o'rnini tahlil qilinadi. Qadimgi davrlardan boshlab shakllangan moddiy va ma'naviy merosni ilmiy asosda o'rganish, jamiyat taraqqiyoti hamda madaniyatlararo aloqalarni yoritishda arxeologiya va etnografiyaning beqiyos ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, arxeologik topilmalar orqali qadimiy shaharsozlik, irrigatsiya tizimlari, xo'jalik

faoliyati va diniy qarashlar haqida muhim ma'lumotlar ochib beriladi. Etnografik izlanishlar esa mahalliy aholining turmush tarzi, urf-odatlar, milliy liboslari, hunarmandchiligi va xalq og'zaki ijodiyoti orqali o'zbek jamiyatining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

РОЛЬ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ И ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

Пирнафас Холикулов

Доцент

Университет экономики и педагогики

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: археология, этнография, история Узбекистана, древняя культура, материальное наследие, этнографические исследования, национальные традиции, фольклор, ирригационная система, градостроительство, ремесло, период независимости, национальная идентичность, историческое наследие.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль археологических и этнографических исследований в истории Узбекистана. Подчеркивается значимость научного изучения материального и духовного наследия для глубокого понимания общественного развития и межкультурных связей. Археологические находки раскрывают особенности древнего градостроительства, ирригационных систем, хозяйственной деятельности и религиозных представлений, тогда как этнографические исследования демонстрируют самобытную жизнь, традиции, фольклор и ремесло узбекского народа.

Kirish. Tarixiy manbalar va ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo mintaqasida markaziy o'rin tutuvchi O'zbekiston hududi qadimdan o'troq dehqonchilik madaniyati hamda chorvador-ko'chmanchi jamoalarning o'zaro ta'siri natijasida shakllangan yirik sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lgan. Ushbu hudud qadimiy moddiy va ma'naviy yodgorliklarni o'z bag'rida asrab kelmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonda arxeologiya fani nisbatan yosh ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Ilk arxeologik tadqiqotlarning boshlanishi XIX asr oxirlariga to'g'ri keladi. Dastlabki qadamlarni havaskor o'lkashunoslar va kolleksionerlar tashlagan bo'lsalar-da, 1884-yilda markaz tomonidan taniqli arxeolog N. I. Veselovskiy rahbarligidagi ekspeditsiya yuborilgan edi. Biroq bu ekspeditsiya murakkab me'moriy inshootlarda ilmiy qazish ishlarini olib borishga yetarlicha tayyor emasligi bois, Samarqanddagi Afrosiyob yodgorligi haqida salbiy xulosalar bildirilgan.

Shunga qaramay, keyinchalik Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi a'zolari – V. L. Vyatkin, E. T. Smirnov, M. S. Andreev, N. G. Malliskiy, A. A. Divayev va boshqa olimlarning faoliyati orqali ushbu yodgorliklarning haqiqiy qimmati ochib berildi.

Shuningdek, sharqshunos V. V. Bartold o'lkani o'rganishga katta e'tibor qaratib, havaskor tadqiqotchilar faoliyatini qo'llab-quvvatladi. Ammo bu jarayon ko'proq individual va mutaxassislikdan yiroq tashabbuskorlarning sa'y-harakatlari asosida kechdi. Natijada, ko'plab noyob tarixiy obidalar va arxeologik topilmalar qadriyat sifatida saqlanib qolmay, savdogarlar tomonidan talon-taroj qilinib, xorijiy davlatlarga olib chiqib ketildi.

Asosiy qism. Ko'hna obidalar ko'pincha nafaqat beparvolik oqibatida, balki mustamlakachi ma'muriyat siyosati ta'sirida ham vayron qilinardi. Mazkur holatni o'sha davr general-gubernatori Samsonovning so'zlari ham yaqqol ifodalaydi: "Rossiya davlatchiligi nuqtayi nazaridan, bu qadimiy yodgorliklarning tezroq yo'qolib ketgani ma'qul bo'lardi". Ushbu qarashlardan kelib chiqib, mustamlaka hokimiyati ko'hna obidalarni saqlash emas, balki ularning yemirilishini tezlashtirishga intilgani ayon bo'ladi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlariga kelib, o'zbek ziyolilari orasidan havaskor o'lkashunoslar shakllana boshladi. Ular o'z xalqi madaniy merosining ulkan qimmati va tarixiy ahamiyatini anglab, uni asrash va keng ommaga tanitishga butun kuchlarini safarbar etdilar.

Arxeologik izlanishlarning yangi bosqichi esa XX asrning 20-yillaridan boshlandi. Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan milliy-davlat chegaralanishi siyosati natijasida tashkil etilgan yangi hududlarda bir qator arxeologik tadqiqot ishlari yo'lga qo'yildi. Shu jarayonda Samarqandlik havaskor o'lkashunos va sharq qo'lyozmalari bilimdoni V. L. Vyatkinning faoliyati alohida o'ringa ega. U XX asr boshlarida Afrosiyob qal'asida arxeologik qazish ishlarini boshlagan bo'lib, keyinchalik bu ishlarni 1925-yilda hamda 1929-1930-yillarda davom ettirdi.

1925-1928-yillarda arxeolog M. E. Masson tomonidan Ohangaron vodiysida ilk arxeologik marshrutlar o'tkazildi, shuningdek, To'ytepa atrofida qazish ishlari amalga oshirildi. Keyinchalik u Termiz yaqinidagi Ayritom qal'asida arxeologik tadqiqotlarni olib bordi. 1934-yilda esa A. Y. Yakubovskiy rahbarligida Zarafshon vodiysida yirik ekspeditsiya tashkil etildi. Mazkur ekspeditsiyada o'z faoliyatini mustaqil ravishda boshlagan iste'dodli arxeolog Turdi Mirg'iyosov faol qatnashdi. U keyinchalik Respublika Tarix muzeyi tarkibida arxeologiya bo'limini tashkil etishga asos soldi.

1936-yilda S. P. Tolstov rahbarligida va Y. F. G'ulomovning faol ishtirokida Xorazm ekspeditsiyasi keng qamrovli arxeologik ishlarni boshladi. Ushbu tadqiqotlar jarayonida qadimgi Xorazm dehqonlari va ko'chmanchi jamoalarning yuksak darajadagi sivilizatsiyasi asta-sekin ilmiy muomalaga kiritildi. Shu davrda M. E. Masson boshchiligidagi Termiz arxeologik majmuaviy ekspeditsiyasi O'zbekiston hududida faoliyat olib borib, paleolit davridan o'rta

asrlargacha bo'lgan yodgorliklarni aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Bu ekspeditsiya natijasida ilk bor tosh asri odamlari faoliyati izlari qayd etildi. Aynan shu davrda A. P. Okladnikov Teshiktosh g'orida neandertal odami jasadini kashf etdi.

Shuni qayd etish lozimki, bu davrlashtirish marksistik formatsiyaviy sxemaga asoslangan bo'lsa-da, ilk bor tarixning eng qadimgi bosqichlari keng miqyosda o'rganildi. Arxeologiya va san'at tarixining rivojlanishida V. A. Shishkinning Varaxsha qal'asida olib borgan arxeologik qazishlari ham muhim ahamiyat kasb etdi. Bu tadqiqotlar jarayonida asrlar davomida unutilgan devoriy tasvirlar kashf etildi. Ular sug'dlarning arab istilosidan oldingi hayotini realistik tarzda aks ettirgan bo'lib, metodologik jihatdan katta ahamiyatga ega namunalarga aylandi. Keyinchalik O'zbekistonning boshqa hududlarida topilgan devoriy tasvirlarning ilk bosqichi sifatida ular ilmiy merosda alohida o'rin egalladi.

Shuningdek, XX asr o'rtalarida amalga oshirilgan yirik irrigatsiya loyihalari – Katta Farg'ona kanali, Toshkent kanali va Kattaqo'rg'on suv ombori qurilishi jarayonida olib borilgan arxeologik kuzatishlar natijasida ham muhim ilmiy xulosalar qo'lga kiritildi. G. V. Grigorev tomonidan Sirdaryo bo'yida va Kelis cho'lida o'tkazilgan tadqiqotlar ham arxeologiya faniga yangi materiallar olib kirdi.

Natija va muhokamalar: Ikkinchi jahon urushi yillarida yirik ekspeditsiyalar faoliyati deyarli to'xtab qolgan bo'lsa-da, alohida arxeologik izlanishlar davom ettirildi. 1942-yilda Y. F. G'ulomov va M. M. Gerasimov shimoliy Toshkent kanali qurilishida arxeologik kuzatuv ishlari olib bordilar. Shu davrda V. A. Shishkin va V. A. Nil'sin Buxoro vohasida qazish ishlarini amalga oshirib, mintaqaning tarixiy-madaniy qatlamlarini o'rganishga munosib hissa qo'shdilar.

1940-yilda O'rta Osiyo davlat universitetida arxeologiya kafedresi ochilib, unga M. E. Masson rahbar etib tayinlandi. Kafedraning asosiy vazifasi yangi arxeolog kadrlarni tayyorlash edi, chunki yirik ekspeditsiyalarni amalga oshirishda mutaxassislar tanqisligi yaqqol sezilardi. L. I. Albaun, Z. Ilhomov, V.A. Levina-Bulatova, O.V. Obelchinko kabi bitiruvchilar mazkur kafedra faoliyatidan so'ng respublikaning arxeologiya sohasida yetuk mutaxassislar safini to'ldirdilar.

1943-yilda yagona fan markazi – O'zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil etilishi bilan ilmiy tadqiqotlarda metodik yondashuvlar sifat jihatidan yangilandi va kadrlar tayyorlashda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Shu yildan boshlab akademiya respublikadagi ilmiy muammolarni hal etishda va yirik majmuaviy ekspeditsiyalarni tashkil etishda yetakchi rolni egalladi. Uning tarkibida Tarix va arxeologiya instituti tashkil qilinib, Y. F. G'ulomov boshchiligidagi qadimgi va o'rta asrlar tarixi bo'limi hamda V. A. Shishkin rahbarligidagi arxeologiya sektori faoliyat boshladi. Bu bo'linmalar keng ko'lamli arxeologik tadqiqotlarni yo'lga qo'yib, moddiy madaniyat yodgorliklarini o'rganish va yosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim hissa qo'shdilar.

Yahyo G‘ulomovich G‘ulomov O‘zbekistonda arxeologiya fanining birinchi malakali mutaxassisi sifatida tanilgan bo‘lib, uning ilmiy faoliyati 1933-yilda O‘zbekiston qadimiyati va san‘ati yodgorliklarini muhofaza qilish qo‘mitasida boshlangan edi. Keyinchalik u SSSR Fanlar akademiyasi O‘zbekiston filialida bo‘lim boshlig‘i lavozimida ishladi. 1956-yilda Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi, 1966-yilda esa haqiqiy a‘zosi etib saylandi. G‘ulomov butun umrini Tarix va arxeologiya institutidagi bo‘lim boshlig‘i sifatida ilmiy izlanishlarga bag‘ishladi. Respublikadagi barcha yirik arxeologik tashabbuslar, ekspeditsiyalar va razvedka tadqiqotlari bevosita uning nomi bilan bog‘liq edi. Olim institutda ikki asosiy yo‘nalishga rahbarlik qildi: tosh asri va bronza davri madaniyatlarini tadqiq etish hamda O‘rta Osiyoda irrigatsiya va dehqonchilik tarixini o‘rganish. Uning qadimgi irrigatsiya tizimlari va yerdan foydalanish masalalariga oid chuqur izlanishlari Zarafshon va Qashqadaryo kabi qadimiy daryolarning suv rejimini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, ilmiy jamoatchilik tomonidan “asosiy poydevor qo‘ygan fundamental xulosalar” sifatida e‘tirof etildi.

Tarix va arxeologiya institutida Y. G‘. G‘ulomov hamda V. A. Shishkin rahbarligida qadimgi shaharlar, qishloq manzilgohlari va qadimiy hamda o‘rta asrlarga oid maqbaralarni chuqur o‘rganish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Ularning tashabbusi bilan tashkil etilgan ko‘plab arxeologik otryadlar Zarafshonning quyi havzasida, Samarqand mintaqasida, Farg‘ona vodiysida, Toshkent vohasida va yangi o‘zlashtirilayotgan yerlar hamda yirik irrigatsiya inshootlari hududlarida dala tadqiqotlarini olib bordilar. Xususan, Chimqo‘rg‘on, Janubiy Surxon va Tuyabo‘g‘iz suv omborlari, Chorvoq GESi hamda keyinchalik markaziy Farg‘ona kanali atrofidagi qazish ishlari ilmiy jihatdan muhim natijalar berdi.

Yildan-yilga institut arxeologlari zimmasiga yanada murakkab va keng qamrovli vazifalar yuklana boshladi. Ular orasida ibtidoiy jamiyat davri yodgorliklari, antik va o‘rta asr manzilgohlari, qadimiy sug‘orish tizimlari hamda shahar va qishloq madaniyatini chuqur tadqiq etish masalalari alohida o‘rin tutdi. Ayniqsa, 1950-yillardan boshlab tosh asri va bronza davrini o‘rganish dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Bu davrga kelib, Teshiktosh va Omonqo‘ton g‘orlari singari bir qator ibtidoiy odam manzillari aniqlanib, O‘zbekiston hududi insoniyatning qadimiy beshiklaridan biri ekanini ko‘rsatib berdi.

Shu bilan birga, uzoq o‘tmish davrini ilmiy asosda tadqiq qilish uchun mutaxassis kadrlarning yetishmasligi sezilarli darajada namoyon bo‘ldi. Y. G‘. G‘ulomov tashabbusi bilan institut aspirantlari sobiq Ittifoqning yirik ilmiy markazlarida tosh va bronza davrini o‘rgangan mashhur olimlar qo‘lida maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazildi. Natijada institut ilmiy jamoasiga yangi, yosh mutaxassislar qo‘shilib, arxeologiya sohasi sezilarli darajada kuchaydi.

O‘zbekiston hududida ibtidoiy madaniyatlarning bosqichma-bosqich rivojlanishini ko‘rsatib beruvchi muhim dalillar qatoriga Janubiy Farg‘ona g‘orlari, Surxondaryodagi Machay va Obishir,

Toshkent viloyatidagi Qo‘shilish kabi o‘rta paleolit va mezolit davrlariga oid manzilgohlarning ochilishi hamda ularning tizimli o‘rganilishi kiradi. Shu bilan birga, tosh asriga mansub chaqmoqtosh ustaxonalari va ibtidoiy san‘atning turli namunalarining topilishi ham ushbu davr madaniy merosining boyligini namoyon etadi.

XX asrning 1950-1960-yillarida bronza davri yodgorliklarini aniqlash va tadqiq etish ishlari ancha faollashdi. Zarafshon vodiysi hamda Qashqadaryo hududida cho‘l bronza davri qabilalariga oid ko‘plab manzilgohlar topilib, keyinchalik Farg‘ona vodiysida ham shunday yodgorliklar ochildi. Bu jarayonda Y. G‘. G‘ulomov, A. Asqarov va O‘. Islomov tomonidan olib borilgan qabriston qazishlari, shuningdek, Buxoro viloyatining g‘arbiy qismida joylashgan Zamonbobo manzilidagi izlanishlar alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu tadqiqotlar natijasida qadimgi dehqonlar va chorvadorlarning mustaqil arxeologik kompleksi – “Zamonbobo madaniyati” fanga kiritildi.

1960-yillarda Surxondaryo hududida bronza davriga oid yangi yodgorliklar — Sopollitepa va keyinchalik Jarqo‘ton topildi. Ushbu manzilgohlarda olib borilgan tadqiqotlar qadimgi dehqonlar va shaharsozlarning yuksak rivojlangan madaniy hayotini fanga tanitdi. Keyingi ilmiy tahlillar natijasida bu yodgorliklar keng hududni qamrab olgan va qasrlar, ibodatxonalar, rivojlangan hunarmandchilik markazlariga ega bo‘lgan Baqtriya–Marg‘iyona sivilizatsiyasi tarkibiga kirgani ma‘lum bo‘ldi. Aholi o‘sha davrda janubda Mesopotamiya va Hindiston markazlari, shimolda esa dasht chorvadorlari madaniy zonalar bilan faol savdo aloqalari olib borgan. Mazkur kashfiyotlar va 1970-yilda Arxeologiya institutining tashkil etilishi bilan davom ettirilgan tadqiqotlar janubiy O‘zbekiston hududlarini qadimgi shahar tipidagi rivojlangan sivilizatsiyalar tizimiga kiritish mumkinligi haqidagi ilmiy fikrni mustahkamladi.

Institut arxeologlari o‘sha davrda shahar va qishloq manzillari, o‘troq aholining nekropollari hamda ko‘chmanchilar qabrlarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratdilar. Varaxsha arki va qasri hududidagi qazish ishlari davom ettirildi, Shimoliy Baqtriya qishloqlaridagi qasrlardan esa yangi devoriy tasvirlar ochildi. Shuningdek, Janubiy Sug‘d qishloqlaridagi turar-joylarni S. K. Kabanov tadqiq qildi. Institut tashkil etilgach, qadimgi shaharlarning shakllanish jarayonlarini tizimli va rejalashtirilgan asosda o‘rganish yo‘lga qo‘yildi.

Ayniqsa, qadimgi Samarqand - Afrosiyob qo‘rg‘oni ilmiy izlanishlarning asosiy ob‘ektiga aylandi. Bu holat 1945-yilda maxsus Samarqand arxeologiya bazasining tashkil etilishida o‘z ifodasini topdi. 1958-yilda Afrosiyob otryadining tuzilishi bilan qal’a hududidagi qazish ishlari keng ko‘lamda davom ettirilib, ilmiy natijalar sezilarli darajada boyitildi.

Institut arxeologik ekspeditsiyalarining olib borgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, miloddan avvalgi VI - V asrlarga kelib O‘zbekiston hududida yirik shaharlar shakllanib, ular hunarmandchilik, savdo va madaniyat markazlari sifatida faoliyat yuritgan. Arxeologik topilmalar

ushbu davrda turli etnik guruhlarining yashaganidan dalolat beradi. Antik davr va o'rta asrlar davomida mintaqada zardushtiylik, buddizm va xristianlik kabi dinlarga e'tiqod qilingan. Bunga yorqin misol sifatida, Farg'ona vodiysidagi Quva qo'rg'onidan topilgan buddaviy ibodatxonani keltirish mumkin.

Institut arxeologlari faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sug'orish tizimlari tarixini o'rganish bo'ldi. Taqiqotlarda ibtidoiy irrigatsiya izlari bilan bir qatorda, keyingi davrlarda barpo etilgan gidrotexnika yodgorliklari ham o'rganildi. Jumladan, X asrda qurilgan Xonbandi, XII asrga mansub G'ishtbandi va XVI asrda barpo etilgan Abdullaxon II bandi kabi suv inshootlari o'z davri irrigatsiya tizimining taraqqiyot darajasini yaqqol ko'rsatib beradi. Bu obidalar O'zbekiston hududida dehqonchilik va shaharsozlikning yuqori rivojlanganini tasdiqlovchi muhim tarixiy manbalar hisoblanadi.

Xulosa. Tarix va arxeologiya instituti hamda boshqa ilmiy muassasalarning arxeologlari faoliyatiga nazar tashlaganda, arxeologiya fanining O'zbekistonda aynan shu institut dargohida shakllanganini alohida ta'kidlash lozim. Mazkur davr yirik kashfiyotlar, keng ko'lamli qazilmalar va qadimdan zamonaviy davrlargacha bo'lgan boy materiallar to'planishi bilan ajralib turadi. Ushbu ilmiy faoliyat natijasida respublikada arxeologiya fanining mustahkam ilmiy asoslari shakllandi.

Institut olimlarining fundamental tadqiqotlari sifatida Y. G'. G'ulomovning "Xorazmda sug'orish ishlari tarixi", V. A. Shishkinning "Varaxsha", shuningdek, Y. G'. G'ulomov, O'. I. Islomov va A. A. Asqarovlarning "Zarafshonning quyi oqimida ibtidoiy madaniyat va sug'orma dehqonchilikning paydo bo'lishi" nomli monografiyalari ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Y. G'. G'ulomov Xorazmda sug'orish ishlari tarixi. – Toshkent, 1959.
2. V. A. Shishkin "Varaxsha" va boshqa arxeologik tadqiqotlar to'plamlari. –T., 1963.
3. O'z SSR FA Tarix va arxeologiya institutining ilmiy ishlari (davriy nashrlar, 1950–1980-yillar). –T., 1985.
4. "Afrosiyob" to'plami – Samarqand arxeologik izlanishlariga oid davriy nashrlar. – S., 1991.
5. "O'zbekistonning moddiy madaniyat tarixi" – maxsus ilmiy nashrlar.
6. 1930–1980-yillarda O'zSSR Fanlar akademiyasi va Arxeologiya instituti ekspeditsiyalari hisoboti.
7. Y.H. Daminov O'zbek davlatchiligida arxeologiyaning o'rni va ahamiyati" –T.: "Sharq nashriyoti", 2000. 322-344 bet.
8. A.Asqarov O'zbekiston tarixi. (Eng qadimgi davrlardan milodning V asrigacha). – T.: O'qituvchi. 1994.